

MEN MUSTAQIL BO'LAMAN

4



Og'zaki topshiriq


Rasmlardagi bolalarga ism qo'ying va ular nima qilayotganini tushuntirib bering.



Gullarni
parvarishlash



Kitob
o'qish



Uy vazifasini
bajarish



Idishlarni
yuvish



Kiyimlarni taxlash



Savollarga javob bering

1. Bolalar qanday ishlarni mustaqil bajaryaptilar?
2. Qaysi ishlarni birovning yordamisiz bajara olasiz?
3. Maktabga ketish uchun tayyorgarlik ko'rishda sizga kim yordam beradi?



Yodda tuting

- Yangi bilimlarni egallang va yanada mustaqil bo'ling.
- O'zingiz bajara oladigan ishlar uchun boshqalarni ovora qilmang.
- Uy ishlarida yaqinlaringizga yordam bering.
- Sinfdooshingiz biror ishni eplay olmayotgan bo'lsa, unga yordamlashing.



Vaziyatni o'rganing

Madina va Ozoda – dugona. Ular har kuni ertalab maktab darvozasi oldida uchrashib, sinfga birga kiradilar. Ozoda bugun kechikdi. Madina undan sababini so'radi.

– Oyim sport kiyimimni uzoq qidirdilar, – dedi Ozoda.





Og'zaki topshiriq

Kun tartibingizni tasvirlab bering. Harakatlar ketma-ketligini belgilang.



O'qituvchi yordamida o'rganing

Kun tartibiga amal qilish salomatlik uchun foydadir. O'quvchilar vaqtida yotib, to'yib uxlasa, kuch-quvvatga to'ladi. Ertalabki badantarbiya kun davomida bardam bo'lib yurishga yordam beradi. Shaxsiy gigiyena qoidalarini ham unutmang: ovqatlanishdan oldin albatta qo'lingizni yuving, kuniga ikki marta tishingizni tozalang.



Savollarga javob bering

1. Nima deb o'ylaysiz, nega uxlashdan oldin telefonda o'yin o'ynash tavsiya qilinmaydi?
2. Nima uchun bolalar uzoq vaqt televizor yoki kompyuter ekrani qarshisida o'tirishi, soatlab planshet yoki telefonda o'yin o'ynashi mumkin emas?



Og'zaki topshiriq

Mustaqil va kattalar yordamida bajaradigan ishlaringizni ko'rsating.





Vaziyatni o'rganing

Otabek darsdan so'ng Akmalnikiga bordi. Akmal do'stiga:
– Buving xavotir olmasligi uchun ogohlantirib qo'y, – dedi.
– Shart emas, endi men katta bolaman, – dedi Otabek.
Buvisi Otabekni uzoq kutdi va xavotir oldi.



Savollarga javob bering

1. Otabek to'g'ri ish qildimi? Nima uchun?
2. Otabekning o'rnida siz nima qilgan bo'lardingiz?





O'qituvchi yordamida o'rganing

Har bir inson mustaqil bo'lishi kerak. Shuningdek, qilgan ishiga o'zi javobgar ekanini ham bilishi lozim. Buni mas'uliyat deb ataymiz.



Og'zaki topshiriq

Berilgan jummalarni qatnashtirib, mas'uliyat bilan qilgan ishlaringizga misollar keltiring.

So'zlar bankidan foydalaning: o'z vaqtida bordim, uy vazifasini bajardim, kitobni o'z vaqtida qaytardim, uy hayvonlariga ovqat berdim, ukamga qaradim, onamga yordamlashdim.



Bo'yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo'ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo'ldimi?

